

МАДУФИЙ НУСХА

Muxlisa Tursunova

Kelganda bahor

She'rlar

«Namangan» nashriyotu
2013 yil.

84(50') 7. 938. 0908.

UO'K: 821.512.133-1

BBK: 84 (5 O'zb) 7

T - 82

HO 41380
0

ISBN - 978 - 9943 - 4054 - 3 - 1

1116-3551,0-1576882

NG-----2013

1117 - (1,75) - (04)

2013/91

A6774

Alisher Navoiy

nomidagi

O'zbekiston MK

© «Namangan» nashriyoti, 2013 йил.



O'zbekistonim

Vatanimsan jon tanimsan, O'zbekistonim,
Sen uchun yashayman hur gulistonim.
Kelajagi porloq nurli bo'stonim,
Yurtlar ichra tanho O'zbekistonim.

Sendagi atlas-u adraslar tanho,
Unda mujassamdir yer yuzi, samo.
Gavhardek tovlanib turadi go'yo,
Sening matolaring dunyoda tanho.

Rishtoning, bo'stoning hur gulistonig,
Doira, nog'ora sozlaring toring.
Tilda doston bo'lgan nurli bahoring,
Shabnamlar to'kilgan erta bahoring.

Dovrug'ing eshitib

Istiqlol bo'libsan shunday navqiron,
Sening dovrug'ingga lol etti jahon.
Poyingga gul to'shar hattoki Parij,
Ko'rkingga ko'rk qo'shar har qilingan ish.
Sen-la har kunimiz o'tar betashvish.

Eng katta yutug'ing yurtim tinchliging,
Millatlar aro boqiy do'stliging,
Kelajak avloddan ko'ngil to'qliging,
Istiqlol bo'l doim shunday navqiron
Dovrug'ing eshitib lol qolsin jahon.



Istiqlol

Istiqlol 20 yoshing muborak,
Sen uchun doimo ezgudir tilak.
20 yil ichida o'zgarding chunon,
Ko'rkingga ko'rk qo'shib bormoqda har on.
Chekka-chekka qishloq, tumanlarda ham,
Tog'mi, adir, yoki past qirlarda ham.
O'zgarishlar soni o'sib bormoqda,
Eskisin o'rniga yangib bormoqda.
Ta'riifiing bir baytga sig'dirib bo'lmas,
Buyuk dostonlaring hech qachon o'lmas.
To'marislar izi hech qachon o'chmas,
Sening ajdodlaring tarixdan o'chmas
Istiqlol bo'l doim shunday navqiron.

Yurtim

Yurtimni qay jabhasini yozay,
Mayliga yurtim deb ozib ham to'zay.
Yurtim har yog'ini gullarga bezay,
Rayhon-u jambilni yurtimga uzay.
Yurtboshim qurib bergan binoni,
Boshimizga qo'ngan oliy xumoni,
Baralla ko'tarib mag'rur bayrog'ni.
Yurtim seni yaxshi ko'raveraman
Yurtim uchun yonib ham kuyaveraman,
Seni onam kabi suyaveraman.



Vatan

Vatanim jonajon O'zbekistonsan,
Asraysan yomon-u yaxshidan meni.
To'maris yashagan nurli makonsan,
Alisher bobomning sevgan Turk tili.
Navoiy taxallus uning gulshani.

Mening ozod elim

Mening ozod elim, jonajon elim,
Senga qalqon bo'lsin shu nozik belim.
Agar sendan kechsam ey o'zbek elim,
Mayliga uzilsin shu nozik belim.

Ey yurtim senga she'r yozsam qancha,
Yana yozgim kelar shuncha o'shancha.
She'rimda keltirsam nurli tuprog'ing,
Menga yoqadida taftli quchog'ing.

Sening barcha joying yozolmasamda,
Olamga dovrug'ing sololmasamda.
Navoiy bobomdek bo'lolmasamda,
Sening uchun bir bayt she'r yozoldim Vatan.

Sening quchog'ingga to'ya oldim Vatan,
Vatan! Vatan! Ey aziz Vatan



Yurtboshimiz

Yurt boshimiz sog' bo'lsin
Biz ishongan tog' bo'lsin ,
Har yog'imiz bog' bo'lsin.
Tursinlar qoshimizda,
Yursinlar boshimizda.
Har qilgan ishimizda,
Hissalari bor bo'lsin.
Erishgan yutug'imiz,
Bayrog'izmiz-faxrimiz.
Har bir so'zni aytishda,
Yurtboshimiz bor bo'lsin.

Eldagi el

Ellarni ichida el desa arzir,
Xalqning ahilligi misoli qasr.
Farzandiga mehri jo'shgandan jo'shir,
Faxr-la aytaman o'zbek el axir.

Bu eida tashvish-u g'am aslo bo'lmas,
Boshidagi xumo hech o'chmasa bas.
Shod, xurram yashaymiz yovga qasma-qasd,
O'zbekda yer oltin ko'karadi xas.

Ajdodlar ruhi hamrohdir doim,
Hech ham kam qilmasin qodir xudoyim.
Tiniq va sokindir yurtdagi soyim,
O'zbekning qizlari oqil, muloyim.



Bayrog'i boshida hilpirar tanho,
O'z nurin sochishdan to'xtamas samo.
Aytgan so'zlarim yolg'onmas ro'yo,
O'zbekiston ko'rib tush deysiz go'yo.

Kelinglar, bir bora sayr qilinglar,
Ta'rifim ne chog'li to'g'ri bilinglar.
Mening yurtimga ham havas qilinglar,
Kelinglar, yurtdoshlar hech tortinmanglar.

Namangan

Gullar shahri Namangan,
Uning har yog'i chaman.
O'zga yurtlarda bo'lsam,
Agar uni sog'insam.
Gul, lolani quchaman,
O'zim ham bir g'unchaman.
Kambag'al xoh boylarda,
Yursam hamki qaylarda.
Namanganim faxrimda,
So'zi shirin luttisi.
Luttisi ham vottisi,
Vottisimas yottisi.
Baribir Namangan so'zi,
Namanganim chiroyi.
Yuksalgandan yuksalsin,
O'n yil kelmagan kishi.
Esankirab lol qolsin,



Bir qishloq

Bir qishloq dunyoda,
Bog'lari bir yog'da.
U qishloq erur Axcha,
Uylarida bor taxcha.
Kelsa agar mehmonlar,
Kutib olar mezbonlar.
Tezda dasturxon solar,
Dehqonchilik ishlari.
Yo'q ular mish-mishlari,
Barcha sho'x-shodon yurar.
Davr-u davronin surar,
Yo'lingiz tushib qolsa.
Mabodo o'tib qolsangiz,
Axchamizga bir keling
O'zingiz guvoh bo'ling.

Qishlog'im – Axcha

Men tug'ilib o'sgan joy,
So'limgina Axchasoy.
Namangan-y a'zimning,
Go'zal Chustday Tumanning,
Bir gavhari qishlog'im.
O'tmoqda bolalik chog'im,
Go'zal Axcha qishlog'im.
Axchaning qoq markazi,
Bordur qishloq maktabi.



Ellik birinchi son bilan,
Bir ajoyib nom bilan.
Qurib ochib qo'yilgan,
Ziyo sochib qo'yilgan.
Uning sal narisida,
Masjid-u muqaddas bor.
Shu masjid qarshisida,
Bir ajoyib do'kon bor.
Bu qishloq aholisi,
Dehqonchilik qiladi.
Axchanning sal narisi,
Qo'shni qishloq bo'ladi.
Shunday qilib Axchanning,
Ta'rifini keltirdim.
Lekin bu ta'riflarning,
Barchasin aytolmadim.
Eng yaxshisi Axchaga,
Mehmon bo'lib bir keling.
Shundan keyin barchaga,
Qishlog'im maqtab yuring.

Kattalar omon bo'lsin

Oq yuvib oq taragan,
Ko'nglimizga qaragan.
Yomon kunda yaragan,
Onalar omon bo'lsin.

Yelkasida opichgan,
Tikon kirsa cho'chigan.



Bizga joni achigan,
Otalar omon bo'lsin.

Bizga konfet olib kelgan,
Har bir so'zga xo'p degan.
G'amimizni ko'p yegan,
Bobolar omon bo'lsin.

Suyuq-quyuq pishirgan,
U yoq bu yoqqa shoshgan.
Duoga qo'lin ochgan,
Momolar omon bo'lsin.

Axir ular barchasi,
Hayotning gul parchasi.

Akamning xotirasiga bag'ishlab

Aka, akaginam o'zimni akam,
Qoldirib ketdingiz ko'zlarimda nam.
Xayolan tiklayman ko'z yumgan har dam,
Jilmayib turasiz zabardast bardam.
Aka, akaginam o'zimni akam,
Siz menga amaki emas yo'q akam.
Jonajon akam cdingiz Ilyosbek akam,
Hayot tashvishidan charchadingizmi.
Dunyodan ko'z yumib ketib qoldingiz.
Hayot tashvishidan yo toldingizmi.
Barchaning ko'ziga bir nam soldingiz,



Ko'zimda yoshlarim yosh emas yo'q qon.
Yonimda edingiz kun yaxshi yomon,
Jonajon akam edingiz aka akajon.
Dardingiz hech kimga to'kib solmadingiz,
Hayot tashvishidan hech nolimadingiz.
Dilingiz og'risa bir so'z demadingiz,
Aka,akaginam o'ynab kulmadingiz.
Qizingiz to'yida yonida turmay,
O'g'lingizni ham o'zingiz o'ylamay.
O'g'il,qizingizni kamolin ko'rmay,
Qayga ketmoqdasiz ortga qaramay.
Bu she'rni davomi sifatida,
Shohidan uzilsa bir dona yaproq.
Daraxtning dilida qancha,qancha oh,
Dunyodan ko'z yumsa bir inson biroq.
Barcha tengdaniga cheka olmas oh.

Ona o'zingizni qachon o'ylaysiz

Dunyoni ko'z ochib ko'rganim uchun,
Onajon sizdan ming bor qarzman.
Olamda baxt iqbol ko'rganim uchun,
Sizni yuksaklarga ko'tarsam ham kam.
Doim o'zingiz emas meni o'ylaysiz,
Ona o'zingizni qachon o'ylaysiz.

Boshimga g'am tushsa parvonam o'zingiz,
Doim termuladi yo'limga ko'zingiz.



Sirdoshim do'stim ham dugonam onam,
Qaylarda bo'lsangiz o'ylaysiz ... bolam !
Doim o'zni emas meni o'ylaysiz,
Ona o'zingizni qachon o'ylaysiz.

Sochingiz oqarib dil yaramasa,
Ko'zingiz nuri ancha pastlasa.
Belingiz quvvati nari siljisa,
Shunday ahvolda ham kuningiz o'tsa.
Doim o'zingiz emas meni o'ylaysiz,
Ona o'zingizni qachon o'ylaysiz.

*Alamli dunyodan bir
nolib qo'ydim*

Boshimga g'am tushib kiprik namlansa,
Yuragim ko'zimdan ko'proq yig'lasa.
Ishimga bir chora topilmay qolsa,
Alamli dunyodan bir nolib qo'ydim.

G'amimni ichimga yutishdan to'ydim,
Har qadam oldimda to'siqlar bo'lsa.
Eldan menga bo'hton toshlar yog'ilsa,
Do'st-dushman xoxolab kulsa,
Alamli dunyodan bir nolib qo'ydim.



Kelganda bahor



Men ham kun kelib shodon yursam.
Barcha kulganida birdek kulsam,
Axir men ham bir odam bo'lsam.
Shunda xudoyimga shukr deb qo'ydim,
Alamli damlarni unutdim qo'ydim.

Kelganda bahor

Bulbullar xonishi huzur bag'ishlar,
Rivojin topadi qilingan ishlar.
Birdayin to'xtaydi elda mish-mishlar,
Gullarni uyg'otib kelganda bahor.

Dillarda chechaklar kurtak ochadi,
Yuzlarda nur toshib chiroy sochadi.
Lablarda tabassum ko'zlar kuladi,
Dillarni uyg'otib kelganda bahor.

Yangilik ulashar navro'zi olam,
Qozonda sumalak qaynar dam-badam.
Yaqinroq kelolmas hatto qayg'u g'am,
Barchani uyg'otib kelganda bahor.

Suvni tejang

Suvni tejamoq uchun,
Qadrini bilmoq uchun.
Yashash shartmi uzoqda,
Suvsiz cho'lu sahroda.



Gul unar suv bor uchun.
Daryo bor qor bor uchun,
Tog' kerakdir ne uchun.
U kerak irmoq uchun,
Suvga bog'liqdir hayot,
Suvsiz bo'lar u barbod.
Shunday ekan barchamiz,
Suvni isrof qilmaylik.
Shod o'tgan har kunimiz,
Uchun shukur qilaylik.

Suv qadri

Bir kelib maktabdan,
Lol qolibman hayratdan.
Uyda yo'q ekan hech suv,
Axir qanaqasi bu.
Qilish kerakdir ovqat,
Qilolmasdim hech toqat.
Suv chiqmay qoldi oy,
Shu oy holim bo'ldi voy.
Suv tashidim uzoqdan,
Qo'shni qishloq buloqdan.
Suv qadrini men bildim,
Endi tejamkor bo'ldim.





O'zbek qizi

O'zbek qizi yagona,
Go'zallikda bir dona.
Sochi o'rilgan tolday,
Kimda-kim ko'rsa qayda.
Salomini ayamas,
Ko'rganlar qilar havas.
Mehnatsevar ham chaqqon,
O'zbek hammaga yoqqan.
Mehri daryo mehribon,
Barcha dillarda bog'bon.
Ko'rki ibo hayosi,
Sho'x shodon bir navosi.
Axir bu o'zbek qizi,
O'zbek elining yulduzi.

She'rim sharobi

She'rimning eng shirin sharobi,
Mast qiladi ba'zan meni ham.
She'rimning eng porloq oftobi
Yoritadi tunda go'yo sham.
Yurtim haqida yozgan she'rlarim,
She'r sharobin eng xushta'm joyi.
Yoshlik haqida yozgan she'rlarim,



Davomidir she'r xushta'mligin.
Go'zallikni keltirsam agar,
She'r hayoti eng latif oyi.
Beg'uborlik haqida yozsam gar,
She'rlar ichra she'rim eng boyi.
Shunday qilib she'rim sharobi,
Shoiraning nurli oftobi.

Tejamkorlik

Tejamkorlik haqida,
Qancha o'ylasak ham oz.
Ba'zan daraxt tagida,
Mevalar yotar boz-boz.
Sochilib yotar ba'zan,
Shirin nonlar ushog'i.
Ba'zan yoqishar xazon,
Bordir uning shu yog'i.
Kimningdir go'zal bog'i,
Payhon bo'lib yotardi.
Sizga aytay do'stlarim,
Ko'ngildagi sirlarim.
Tejamkor bo'ling doim,
Boshqaga ham o'rgating.
Aytganlaridek oyim,
Sizlar kimsiz ko'rsating.





Maslaxat

Yaqin oldim o'zimga,
Quloq sol har so'zimga.
Senga beray maslahat,
Amal qilib bo'l sihat.
Chayimay yema mevani,
O'ylab aytayabman buni.
Yeb bo'liboq ovqatni,
O'ylamasdan sihatni.
U yoq bu yoq yugurma,
Betob bo'lib ulgurma.
Ko'p yemagin sen konfet,
Senda qolmaydi hech et.
Og'riydi tishing,
Chatoqdir ishing.
Ichib sovuq suv,
Tomoq og'rir-ku.

Bir kam dunyo

Bu dunyo bir kam dunyo,
Ajib dunyodir.
Nimangdir bo'lganda,
Bo'lmas bittasi.
Oltin, zar tilla-yu boylik bo'lganda,
Qiynaydi insonni bir arzandasi.
Ba'zilar gullagan yoshiik chog'ini,



	Alisher Navoiy
2013/54	nomidagi
A	
6774	O'zbekiston MK

Alishib yuborar zahar xandaga.
Uyida, yonida bor bisotini,
Beradur bir kashandaga.
Dunyo bir kamligi,
Shunda mujassam.
Boshida xumosi bo'lib tinchligi,
Hiylasiga uchib ba'zan shum qadam.
Chet elga qul bo'lib ketib qolishar,
Do'stlar yurtday joyni qaydan topishar.
Ba'zilar topolmay to'g'ri yo'lini,
Qarang tanlashadi jinoiy ishni.
Bu ish kelajagi aniq va ravshan,
Bir kun qo'llariga taqilar kishan.
Shundan ham bu dunyo bir kam dunyodir,
Ajab ham, sirli ham, g'amli dunyodir.

Maktabim o'qituvchilari

Men o'qigan maktabni,
Tillo desa arziydi.
Undagi ustozlarni,
Dono desa arziydi.
Maktabim direktori,
Toshmatova Xidoyat.
Ularning ziyrakligi,
Ulashar xush kayfiyat.



Nafisa oyim mening

Eng birinchi o'qituvchim,
She'riyat osmoniga,
Yetakladilar ushlab qo'lim,
Sevimli ustozim.
Hamdamova Feruza,
Ularni ko'rib o'zim,
Quv nab ketaman juda.
Algebra fanidan bizga,
Namuna oya dars berar.
Mehr-la har birimizga,
Hisob-kitob o'rgatar.
Maktabim o'qituvchilari,
Bir-biridan donodir.
Mening uchun har biri,
Ilm fanda tanhodir.
Qo'lim ko'ksing qo'yib,
Ming tashakkur aytaman.
Million ming ta'zim etib,
Ilmidan zavq olaman.

Dunyo ishlari

Dunyoning ishlari, qiziq ishlari,
Inson qilmishlari. Ko'p mish-mishlari.
To'rt kunlik dunyo-sirli dunyo bu,
Yaxshilik yomonlik kurashidir-bu.



Ba'zi insonlar bor umri boqiydir,
Ba'zan insonlarning qilmishi badkir.
Dunyoning yana bir qiziq ishi bor,
Kimdir baxtga zor-u kimdir baxtiyor.
Beshavqat dunyoda begunoh jabr,
Hatto yomonlarga topilmas qabr.
Muxlisani shoir qildi bu dunyo,
Unga ham ko'p sinov berdi bu dunyo.

Shunday insonman

Men dunyoda hech qachon,
Nolimagan insonman.
G'iybatdan oqizib qon,
Suv ichmagan insonman.
Bir qishlog'lik qizman-u,
Shashti baland insonman.
Barchindek qirmizman-u,
To'maris pahlavonman.
Qalamimni tebratib,
Bir ajib shoiraxonman.
Ta'rifimni aytib o'tdim,
O'zbek qizi Muxlisaman.





Dunyoda

Dunyoga kurashlar bo'lmog'i uchun,
Yaxshilik yomonlik, oq va qora bor.
Olamda yaxshi nom yutmog'i uchun,
Yaxshi inson va vijdonlilar bor.

Yomg'ir tili

Yomg'ir tilin bilib so'zlasholsaydim,
Uning ohangida sozlar chalsaydim.
Yomg'irning nolasi nedur bilsaydim,
Uning dardlariga malham bo'lsaydim.
Unga dardlarimni to'kib solsaydim,
Yomg'irning nolasin eshitolsaydim.
Shunday orzu ila yashab kelaman,
Bilaman, kulaman va yomg'ir bilan.
Bir kuni, albatta suhbat quraman.

Qog'oz va qalam she'ri

Hayotda qiynalsam qalam olaman,
Qog'ozga dardimni to'kib solaman.
Ba'zan alamimni undan olaman,
Ular bo'lmasa gar yolg'iz qolaman.
Dunyoda yagona do'stimdir qalam,
Qog'oz qalam-la qolmas hech alam.
Dunyoda shunchalik azob ko'rsam ham,
Yonimda tirkakdir qog'oz va qalam.



Yaxshilarda yashar yaxshilik

Ajib dunyo sirli dunyoda,
Umrimiz ham bo'lar ziyoda.
G'am bo'lib qolsa gohi-gohida,
Yaxshilarda yashar yaxshilik.

Pulni deya qondan kechsalar,
Bora-bora jondan kechsalar.
Chet-ellarga qul bo'lib ketsalar,
Yaxshilarda yashar yaxshilik.

Inson emas zuluk misoli,
Qiziqtirmas o'zganing holi,
Yomonlikda yig'salar molni,
Yaxshilarda yashar yaxshilik.

Choy o'rniga sharob ichsalar,
Mast ahvolda qasam ichsalar.
Qarang inson zo'rmi shunchalar,
Yaxshilarda yashar yaxshilik.

Dunyoda ko'p yaxshi insonlar,
Juda-juda ko'p musulmonlar.
Shodlanamiz: bordir asl insonlar,
Shundaylarda yashar yaxshilik.





MUNDARIJA

<i>O'zbekistonim</i>	3
<i>Dovrug'ing eshitib</i>	3
<i>Istiqlol</i>	4
<i>Yurtim</i>	4
<i>Vatan</i>	5
<i>Mening ozod elim</i>	5
<i>Yurtboshimiz</i>	6
<i>Eldagi el</i>	6
<i>Namangan</i>	7
<i>Bir qishloq</i>	8
<i>Qishlog'im - Axcha</i>	8
<i>Kattalar omon bo'lsin</i>	9
<i>Akamning xotirasiga bag'ishlab</i>	10
<i>Ona o'zingizni qachon o'ylaysiz</i>	11
<i>Alamli dunyodan bir nolib qo'ydim</i>	12
<i>Kelganda bahor</i>	13
<i>Suvni tejang</i>	13
<i>Suv qadri</i>	14
<i>O'zbek qizi</i>	15
<i>She'rim sharobi</i>	15
<i>Tejamkorlik</i>	16
<i>Maslaxat</i>	17
<i>Bir kam dunyo</i>	17
<i>Maktabim o'qituvchilari</i>	18
<i>Nafisa oyim mening</i>	19
<i>Dunyo ishlari</i>	19
<i>Shunday insonman</i>	20
<i>Dunyoda</i>	21
<i>Yong'ir tili</i>	21
<i>Qog'oz va qalam she'ri</i>	21
<i>Yaxshilarda yashar yaxshilik</i>	22



Adabiy - badiiy nashr

Muxlisa Tursunova

Kelganda bahor

She'rlar

Muharrir: *Husniddin Inomov.*
Tex. muharrir: *No'monxon Toshxojayev.*
Kom. dizayneri: *Ismoilxon Toshxojayev.*
Musahhih: *Kamolxon Boboxonov.*

Terishga 10.03.2013 yil berildi. Bosishga 26.04.2013 yil
ruxsat etildi. Shirift garniturası Palatino Linotype.
Oq qog'ozga ofset usulida bosildi. Bichimi 60x84. 1/16.
Shartli bosma tabog'i 1.75 Nashriyot hisob tabog'i 1.30
Adadi 500 nusxa. Buyurtma №240. Bahosi kelishilgan narxda.

«Namangan» nashriyoti. Namangan shahri,
Navoiy ko'chasi, Matbuot uyi, 3-qavat.

Nashriyot litsenziya raqami AN-156
2009 yil 14 avgustda berilgan

«Chust bosmaxonasi» MCHJ
Chust shahri, So'fizoda ko'chasi 8-uy.